



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

QO‘QON XONLIGI HUDUDIDA YASHOVCHI XALQLAR ETNIK TARKIBI

Obidjonova Gulchehra Mamirjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti, magistrant

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qo‘qon xonligi hududida yashagan xalqlarning etnik tarkibi, ularning joylashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘rni hamda o‘zaro etnomadaniy aloqalari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Xonlik hududida o‘zbeklar, qirg‘izlar, qozoqlar, tojiklar, uyg‘urlar va boshqa etnik guruhlarining yashagani, ularning xo‘jalik yuritish usullari hamda hududning siyosiy va madaniy hayotiga ko‘rsatgan ta‘siri yoritilgan. Shuningdek, XIX asrda Qo‘qon xonligidagi etnik jarayonlarning o‘ziga xos jihatlari ilmiy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, etnik tarkib, o‘zbeklar, qirg‘izlar, qozoqlar, tojiklar, etnomadaniy jarayonlar, Farg‘ona vodiysi, aholi, tarix.

ЭТНИЧЕСКИЙ СОСТАВ НАРОДОВ, ПРОЖИВАВШИХ НА ТЕРРИТОРИИ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА

Обиджонова Гульчехра Мамиржон кизи

Ферганский государственный университет, магистрантка

Аннотация

В данной статье анализируется этнический состав народов, проживавших на территории Кокандского ханства, их расселение, роль в социально-экономической жизни и межэтнические культурные связи на основе исторических источников. Освещаются особенности проживания узбеков, кыргызов, казахов, таджиков, уйгуров и других этнических групп, их хозяйственная деятельность, а также влияние на политическую и культурную жизнь ханства. Кроме того, научно раскрываются особенности этнических процессов в Кокандском ханстве в XIX веке.

Ключевые слова: Кокандское ханство, этнический состав, узбеки, кыргызы, казахи, таджики, этнокультурные процессы, Ферганская долина, население, история.

ETHNIC COMPOSITION OF THE PEOPLES LIVING IN THE TERRITORY OF THE KOKAND KHANATE

Obidjonova Gulchehra Mamirjon qizi

Fergana State University, Master's student

Abstract

This article analyzes the ethnic composition of the peoples living in the territory of the Kokand Khanate, their settlement patterns, role in socio-economic life, and interethnic cultural relations based on historical sources. The study highlights the presence of Uzbeks, Kyrgyz, Kazakhs, Tajiks, Uyghurs, and other ethnic groups within the khanate, their economic activities, and their influence on the political and cultural life of the region. In addition, the specific features of ethnic processes in the Kokand Khanate during the nineteenth century are scientifically examined.

Keywords: Kokand Khanate, ethnic composition, Uzbeks, Kyrgyz, Kazakhs, Tajiks, ethnocultural processes, Fergana Valley, population, history.

Qo‘qon xonligi hududidagi etnik tarkib masalasi mahalliy va xorijiy tarixchilar tomonidan turli davrlarda tadqiq etilgan. Xususan, T.K.Beysembiyevning ilmiy ishlari Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy-etnik jarayonlarini o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Olim o‘z asarlarida Farg‘ona vodiysi va Qo‘qon xonligidagi aholining etnik tarkibi, ularning joylashuvi hamda xo‘jalik faoliyatiga alohida e‘tibor qaratgan. Shuningdek, H. Bobobekovning Qo‘qon xonligi tarixiga oid tadqiqotlari xonlikdagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni yoritishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Muallif o‘z ishlari xonlik hududidagi o‘zbek urug‘lari, qirg‘iz-qipchoq munosabatlari hamda aholining ijtimoiy tarkibini tahlil qilgan. Rus sayyohlari va harbiy tadqiqotchilarining esdaliklari ham muhim tarixiy manba sifatida ahamiyatlidir. Xususan, A.P.Fedchenko, V.P.Nalivkin hamda N.Xanykov asarlarida Qo‘qon xonligi hududidagi xalqlarning turmush tarzi, urf-odatlar va etnik tarkibi haqida qimmatli ma‘lumotlar uchraydi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa etnik jarayonlar antropologik, demografik va etnomadaniy yondashuvlar

asosida o'rganilmoqda. Mazkur maqolani tayyorlashda tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga asoslangan ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tarixiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish, etnik jarayonlarni retrospektiv yondashuv asosida o'rganish hamda tarixiy-qiyosiy metodlardan foydalanildi.

Natija va muhokama. Qo'qon xonligi hududi Farg'ona vodiysidan tashqari, Toshkent vohasi, janubiy-sharqiy Qozog'iston, hozirgi Qirg'iz va Tojikiston Respubliklarining katta qismini egallagan. Farg'ona vodiysi o'zining tabiiy iqlimi bilan qadimdan insonlar farovon yashashi uchun barcha tabiiy sharoitlarga ega bo'lgan. Vodiyning tekislik hududi irrigatsion tizimning rivojlanishi uchun juda qulay, hududning quruq va issiq iqlimi, suv manbalarining yetarli ekanligi hududda qadimdan dehqonchilik rivojlanishi uchun qulay edi. Farg'ona vodiysining tekislik hududi 22,2 km.kv, atrofidagi o'rab turgan tog'lar bilan hisoblaganda 80 ming km.kv.ni tashkil etadi [1;61]. Tuzli, qumli va toshli hududlar Farg'ona vodiysining 1/5 qismini tashkil etadi [2;192]. Shuning uchun qadimdan bu yerlarda aholi zich yashagan.

Bundan ko'rinib turibdiki, Farg'ona vodiysining tabiiy-geografik qulayligi Qo'qon xonligi hududida demografik va etnik jarayonlarning shakllanishida hal qiluvchi omil bo'lganini ta'kidlash lozim. Ya'ni, irrigatsiya imkoniyatlari va unumdor yerlarning mavjudligi nafaqat o'troq dehqonchilik madaniyatining rivojlanishiga, balki hududning migratsion jozibadorligining ortishiga ham sabab bo'lgan. Bu esa o'z navbatida aholi sonining ortishi bilan birga etnik tarkibning murakkablashuviga olib kelgan. Shunday qilib, tabiiy sharoit, xo'jalik rivoji, aholi zichligi, etnik xilma-xillik kabi uzviy bog'liq jarayonlar tizimi shakllanganini kuzatish mumkin.

O'rta Osiyoning yirik regionlaridan biri bo'lgan Qo'qon xonligida asosan o'zbek, tojik, qirg'iz, qipchoq, turk kabi xalqlar, shuningdek qoraqalpoqlar, uyg'urlar, yahudiy, arablar, eronliklar, ruslar, tatarlar, dunganlar va boshqa xalqlar yashaganlar [3;24]. Ushbu jarayondan bilish mumkinki, bu xilma-xillik tasodifiy emas, balki uzoq davom etgan tarixiy-migratsion jarayonlar mahsuli ekanligini qayd etish zarur. Xususan, hududning qulay geografik joylashuvi, savdo yo'llariga yaqinligi va iqtisodiy barqarorligi turli xalqlarning bu yerga ko'chib kelishiga zamin yaratgan. Shu bilan birga, etnik tarkibning rang-barangligi nafaqat demografik holatni, balki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni ham belgilab bergan. Turli xalqlarning bir hududda yashashi o'zaro iqtisodiy hamkorlik, madaniy almashinuv va xo'jalik tajribasining boyishiga olib kelgan bo'lsa-da, ayrim holatlarda siyosiy raqobat va ijtimoiy ziddiyatlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'lgan. Demak, Qo'qon xonligi hududidagi etnik xilma-xillik ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, bir tomondan taraqqiyot omili, ikkinchi tomondan esa ichki siyosiy beqarorlik manbai sifatida namoyon bo'lgan. Farg'ona vodiysining o'troq aholisi tarkibiga sartlar, tojiklar, o'zbeklar, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi tarkibiga esa qipchoq, qirg'iz, turk, qoraqalpoq, cho'n-bag'ish va qalmoqlar kirgan. Farg'ona vodiysi tekisliklari unumdor va sug'oriladigan hudud bo'lganligi sababli bu yerda asosan o'troq aholi yashagan. Ular o'troq hayot kechirib dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanganlar. Vodiy qirg'oqlari va tog'li hududlari yaylovlarga qulay bo'lganligi sababli bu yerda ko'chmanchi hayot tarzidagi qirg'izlar yashaganlar [4;86].

Qipchoqlar Shahrixon, Baliqchi, Qoradaryo, Norin oralig'idagi yerlarda yashagan. Qirg'izlar esa Farg'onani o'rab olgan tog'li hududlarda yashaganlar (Ketmontepa va Oloy). Qipchoq va qirg'izlarning aynan shu hududlarda joylashuvi, avvalo, tabiiy-geografik omillar bilan izohlanadi, ya'ni suv manbalariga yaqinlik hamda keng yaylovlarning mavjudligi ularning an'anaviy xo'jalik turi bo'lgan chorvachilikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratgan. Bu esa ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turmush tarzining barqaror saqlanib qolishiga xizmat qilgan.

XV asr oxirlariga kelganda Farg'ona vodiysi aholisi asosan ikki guruhga bo'lingan. Birinchisi kelib chiqishi turkiy tilli aholi (ular ko'proq Andijon va Marg'ilon atroflarida yashagan), ikkinchisi asosan So'x tumanida yashovchi mahalliy tojik tilli aholi hisoblangan. XVI asr boshlariga kelib vodiya uchunchi etnik guruh – o'zbeklar (Dashti Qipchoqdan kelgan turkiy tilli aholi), asr oxiriga kelib vodiya qirg'iz xalqiga mansub aholi ko'chib kela boshlagan [5;179]. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ikki asosiy til-etnik guruhning mavjudligi hududning qadimiy aholi qatlamini aks ettirsa, keyinchalik Dashti Qipchoqdan o'zbek qabilalarining kirib kelishi va qirg'izlarning joylashuvi bu hududning ochiq migratsion makon bo'lganidan dalolat beradi. Demak, Farg'ona vodiysi yopiq etnik hudud emas, balki turli davrlarda turli xalqlar kirib kelib, o'zaro aralashgan ijtimoiy faol tarixiy makon sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, qipchoq va qirg'izlarning joylashuvini tahlil qilish ularning faqat tabiiy sharoit bilan emas, balki iqtisodiy ixtisoslashuvi bilan ham belgilangani aniqlangan. Chorvachilikka asoslangan xo'jalik tizimi ularni tog' va tog'oldi hududlarga yo'naltirgan bo'lsa, dehqonchilikka ixtisoslashgan guruhlar esa tekisliklarda to'plangan. Bu holat hududda aniq iqtisodiy-geografik ixtisoslashuvni yuzaga keltirib, turli

aholi qatlamlari oʻrtasida oʻzaro bogʻliqlikni shakllantirgan. Yaʼni, koʻchmanchi va oʻtroq aholi bir-birini iqtisodiy jihatdan toʻldirgan, biroq ayni paytda resurslar uchun raqobat ehtimolini ham yuzaga keltirgan. Bundan tashqari, XVI asrda yangi etnik guruhlarining kirib kelishi faqat demografik oʻzgarish emas, balki siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning ham faollashuviga olib kelgan. Ayniqsa, Dashti Qipchoqdan kelgan oʻzbek qabilalari keyinchalik hududda siyosiy yetakchi kuchga aylanganini hisobga olsak, migratsiya jarayonlari davlat tuzilmalari shakllanishiga ham bevosita taʼsir koʻrsatganini taʼkidlash mumkin.

XVII asr birinchi yarmida Fargʻona vodiysida koʻchmanchi oʻzbek qabila (qipchoq, qalmoq va h.k.)lari hisobiga turkiy tilli aholi tarkibi yanada kengaygan [6;24]. XVIII asr davomida Buxoro va Samarqanddan koʻchib kelgan tojiklar hisobiga vodiylar aholisining etnik tarkibi yanada kengaygan. Mazkur maʼlumotlardan Fargʻona vodiysida etnik tarkibning kengayishi ikki asosiy omil – ichki migratsiya va tashqi siyosiy vaziyat bilan uzviy bogʻliq ekanligini koʻrish mumkin. XVII asrda koʻchmanchi oʻzbek qabilalarining kirib kelishi, avvalo, hududda turkiy elementning kuchayishiga olib kelgan boʻlsa, XVIII asrda tojik aholining koʻchib kelishi etnik muvozanatni yanada murakkablashtirgan. Bu jarayonni “koʻp bosqichli etnik shakllanish” sifatida baholash mumkin, yaʼni har bir tarixiy davr yangi etnik qatlamlarning qoʻshilishi bilan xarakterlanadi. Tojik tilli aholi koʻchib kelishi faqat siyosiy beqarorlik natijasi sifatida emas, balki iqtisodiy omillar bilan ham bogʻliq. Chunki Fargʻona vodiysi bu davrda irrigatsion dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo rivojlangan hudud sifatida boshqa mintaqalarga nisbatan jozibador markazga aylangan. Qoʻqon xonligida oʻtroq aholi hududiy kelib chiqishi va etnik kelib chiqishi bilan ham atalgan. Masalan, xoʻqandiy, toshkandiy, margʻiloniy hududiy kelib chiqishi boʻlsa, sartiya, oʻzbekiya, tojikiya aholini etnik kelib chiqishi hisoblanadi. XVI–XVII asrlarda oʻtroq hayot kechirgan shahar va qishloq aholisi sart deb atalgan boʻlib, ular kelib chiqishi va til jihatidan asosan ikki – oʻzbek (kelib chiqishi turkiy boʻlgan) va tojik (kelib chiqishiga koʻra eronlik)larga boʻlingan. Faqat “sart” atamasi uchun qarashlar yagona yechimga ega boʻlmaganligi sababli ushbu tushuncha bilan bogʻliq mulohazalarni aniq xulosalash qiyin.

Qoʻqon xonligida yashagan oʻtroq aholisini esa shartli ravishda uch guruhga boʻlish mumkin: 1. Shahar va qishloqlarda oʻtroq hayot kechirayotgan, allaqachon urugʻ-qabilachilik anʼanalaridan uzilgan oʻzbeklar. Ular asosan turkiy va forsiy tilli aholisining assimilyatsiyasi natijasida shakllangan boʻlib, hududda miloddan avvalgi I ming yillik oxiridan buyon yashaganlar. 2. Muhammad Shayboniyxon hukmronligi oʻrnatilmasdan ham oldinroq kelgan turkiy qabilalar vakillari – yagʻmo, qarluq, chigil, ashpar, turkshar, chogʻroq, qavchin, jaloyir, barlos, nayman, ming, qirq, churas, qangʻli, bahrin, norin, togʻay, dugʻlat, oʻtarchi, argʻin, biliqchi va boshqalar. 3. XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Dashti Qipchoqdan kelgan oʻzbek qabilalari vakillari – qoʻngʻirot, qiyot, qatagʻon, kenegas, mangʻit, maroy, yuz, qipchoq va boshqalar [7;416].

Oʻtroq aholini uch guruhga ajratishning asosiy sababi ularning tarixiy kelib chiqishidagi bosqichma-bosqichlik va hududga kirib kelish vaqtining farqlanishi bilan bogʻliq ekanligini koʻrish mumkin. Shuningdek, ushbu uch guruh oʻrtasidagi farqlanish faqat xronologik emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan ham belgilanadi. Turli davrlarda kirib kelgan qabilalar va aholi guruhlari oʻzaro aralashib, asta-sekin yagona etnomadaniy muhitni shakllantirgan. Qoʻqon xonligi tashkil topishi va mustahkamlanishi jarayonida koʻchmanchi va oʻtroq aholining migratsiya jarayoni davom etgan. XVI–XVII asrlarda Fargʻona vodiysi Buxoro xonligining sharqiy hududlari hisoblansa-da, juda zaif boʻlgan. Hudud kelib chiqishi Dashti Qipchoqlik boʻlgan oʻzbek qabilalari tomonidan boshqarilgan va doimo sharqiy qoʻshnilari, qoshgʻar, qozoq, qirgʻiz va jungʻor (qalmoq) koʻchmanchilari tomonidan bosib olinish xavfi ostida boʻlgan. Bu oʻsha davrda vodiyni iqtisodiy, yaʼni oʻtroq-dehqonchilik jihatidan rivojlanishiga toʻsqinlik qilgan [8;186].

XVIII asrda qozoqlar quyidagi hududlarda yashaganlar: Chimkentda (chimir), Toshkentda qozoqlarning toʻrt qabilasi alohida mavzelarda – ishim (Beshyogʻoch), qoʻngʻirot va Oʻrta Juz (Koʻkcha), janis (Sebzor) va sirgʻali isti va oshaqli (Shayhontoxur)da yashaganlar. Chinozda qozoqlarning ikki guruhi – qulash va nayman, Parkent va uning atroflarida esa chiqchim qabilalari yashaganlar. Qozoqlarning bu hududlarda yashashiga sabab Toshkent vohasi va Sirdaryo boʻyidagi hududlar sugʻoriladigan yerlar va chorvachilik uchun qulay hudud boʻlgan. Shuningdek, har bir qabilaning alohida hududlarda yashaganligi ichki nizolarning kamayishiga sabab boʻlgan. Bu qabilalar yozda koʻchmanchilik, qishda esa oʻtroq aholi yashash hududlariga yaqin yashaganlar. Shuning uchun dastlabki davrlarda Jonish urugʻidan Toʻlaboy oʻgʻli Niyozbek Toshkent yaqinida Niyozbek qalʼasiga asos soladi va bu qalʼa Toshkentga suv yetkazib berishda kalit nuqtaga aylangan. Sirgʻali qabilasi Boytepak nomli turar-joyini va Qibrayda qiyot qabilasi yashash manzillarini barpo etganlar. Lekin bu holat uzoq davom etmagan. 1794-yili Toshkentda

Yunusxo'ja sanchqli va qang'li qabilasiga suyanib hokimiyatini o'rnatadi. Ularga qiyot va turk qabilalari ham qo'shiladi. Mana shu to'ntarishdan keyin to'rt qabila Toshkent vohasida muhim rol o'ynay boshladi. XIX asr o'rtalariga barlos qabilasi Oqmachit atroflarida, qipchoqlar Julekda yashaganlar. Turkistonning Aris atroflarida beshtamg'ali qabilasi yashagan. Ashtarxoniylar sulolasining zaiflashuvi hududga Dashti Qipchoqdan (qozoq va qoraqalpoq) ko'plab xalqlar ko'chib kelishiga, XVIII asr 40–50-yillaridagi iqtisodiy inqiroz va tashqi bosqin (Nodirshoh bosqini) Samarqand va Buxorodan ko'plab aholining Farg'ona vodiysiga ko'chib kelishiga sabab bo'lgan. XVIII asr boshida Qo'qon shahridagi to'rt mavzedan uchasi kelib chiqishi mahalliy bo'lmagan aholiga mansub edi: samarqandiy, qoshg'ariy va ko'histoniy [9;53].Jung'orlar tazyiqi natijasida XVIII asr boshlarida Farg'ona vodiysiga ko'plab qozoq-qipchoq guruhlari ko'chib kelgan bo'lib, manbalarda ular "Farg'onalik qipchoqlar" nomi bilan tilga olingan. Ular asosan dasht hududlariga joylashib, arg'in urug'i asosida shakllangan hamda sart qipchoq va qirg'iz qipchoq guruhlari bo'lingan. XIX asr o'rtalarida (1844–1852) davomida hukmron mavqega ega bo'lgan. Bu davrda ularning harbiy kuchi taxminan 18 ming askardan iborat bo'lib, umumiy soni 90–100 ming atrofida baholanadi.Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, qipchoqlarning ko'chib kelishi tashqi siyosiy omil sifatida yuzaga kelgan. Ularning mavqei kuchayishi yangi hududga tez moslashuvi va harbiy salohiyati bilan uzviy bog'liq. Ularning dasht hududlariga joylashuvi an'anaviy chorvachilik xo'jaligiga mos keluvchi iqtisodiy-geografik muhit bilan belgilanadi. Bu esa qipchoqlarning o'z xo'jalik tizimini saqlab qolgan holda hududda barqaror yashashiga imkon yaratgan. Qipchoqlar son jihatdan ko'p va harbiy jihatdan uyushgan bo'lganligi sababli davlat boshqaruvida yetakchi mavqega chiqishga muvaffaq bo'lgan.

Qirg'izlar Farg'ona vodiysida dastlab XVI asr oxirlarida paydo bo'lishgan. Qirg'iz qabilalari keng hududlarga joylashgan bo'lib, ularning joylashuvi quyidagicha bo'lgan: shimolda Avliyootadan Olmaotaga qadar solta, saribag'ish va bug'i, Talos vodiysida saru qabilasi, Qutlug'-sayid qabilasi Koson atroflarida (1810-yillar), Sayak qabilasi esa Ketmontepa va Qorasuv hududlarida (1815–1822-yillar) yashagan. Janubiy-g'arbda, Xo'jand atrofida avaxat qabilasi, ularning yozgi yaylovlari Yetti-ko'prik hududida joylashgan. Osh tumanida qirg'o'g'il, Madi va G'ulja tomonlarda ichkilik va adig'in qabilalari ko'chmanchilik qilganlar. Janubiy-sharqda, Qoshg'ar yaqinida cho'n-bag'ish qabilasi yashab, ular 1824-yili Qizilsuv hududida bo'lgan va 1826–1827-yillarda Jahongirxo'janing Qoshg'ardagi isyonida 6 ming kishilik qo'shini bilan ishtirok etgan. Ma'lumotlardan kelib chiqib, qirg'iz qabilalarining keng hududlarga aniq joylashuvi ichki ijtimoiy tuzilmaning barqarorligini ta'minlaganini, ular faqat chorvador aholi emas, balki siyosiy jarayonlarda ham faol bo'lganini ko'rish mumkin.Xonlik hududida qadimiy turmush tarzini saqlab qolgan turkiy qabilalar ham yashaganlar: qirq, ming, yuz, kenagas va boshqalar. Qirq – O'sh va Andijon hududlarida yashagan, ming – asosan Movarounnahrning turli hududlaridan tashqari, Farg'ona vodiysida, yuz – Toshkent vohasi, Chimkent, Sirdaryo havzalarida yashagan, kenagas – Zarafshon vodiysi Samarqand atroflarida yashagan. Kenagas qabilasi vakillarining vodiy hududiga joylashishlari Abdurahimbiyning Oyuchchuk oyimga uylanishi voqeasi bilan bog'liq.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, XVIII asrda Farg'ona vodiysi tashqi xavfdan birmuncha chetda qolgan bo'lsa-da, aholining tashqi migratsiyasi masalasidan chetda qola olmadi. Bu jarayon Farg'ona vodiysidagi aholi tarkibining yanada kengayishiga va siyosiy kurashning yanada avj olishiga, 1840-yillardan xonlikda har tomonlama inqirozli hodisalarning boshlanishiga olib kelgan. Aholi tarkibida o'troq aholi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholiga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan. XIX asrning boshlarida aholining 40 foizdan ortig'i ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lsa, shu asrning oxiriga kelib ular 15 foizni tashkil qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бейсембиев Т.К. Тарихи Шахрухи как исторический источник. — Алматы, 1987. — С. 61.
2. Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. — Санкт-Петербург, 1916. — С. 192.
3. Kuzikulov I. Qo'qon xonligi tarixi. — Namangan, 2014. — B. 24.
4. Губаева С.С. Горные таджики Каратегина в Ферганской долине (конец XIX — начало XX в.) // eo.iea.ras.ru — С. 86.
5. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. — Москва, 1958. — С. 179.
6. Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. — Казань, 1886. — С. 24.
7. История Узбекистана. — Тошкент: Фан, 2012. — С. 416.
8. Бейсембиев Т.К. Кокандская историография: Исследование по источниковедению Средней Азии XVIII–XIX веков. — Алматы: TOO Print-S, 2009. — С. 186.
9. Mulla Olim Mahdum Hoji. Tarixi Turkiston. — Toshkent: Fan, 1992. — B. 53.